

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIYTA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
boshlig'i T.A.Yuldashevning 2024-2025- o'quv yili dekabr
oyi davomida bajargan ishlari yuzasidan**

H I S O B O T I



Samarqand-2024

Dekabr oyi davomida Manaviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i, profilaktika inspektori, 7 nafar ta'lim-tarbiya maslahatchilari va 14 nafar guruh rahbarlari (4-kurslar uchun) tomonidan talabalarning ijara xonadonlarida yashash sharoitlari o'rganilib chiqildi. Ijara xonadonlaridagi yong'in xavfsizligiga rioya etilishi va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatlari ko'rib chiqildi, jumladan xonadonlarda yashovchi talabalar bilan elektr, gaz, texnika, yong'in xavfsizligi va sanitariya qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, yashash, dars qilish va ovqatlanish uchun zarur bo'lgan maishiy jihozlarni ishlatish bo'yicha ham ko'rsatmalar berib o'tildi. O'rganish yakunida ishchi guruh tomonidan aniqlangan kamchilik va muammolar ijara xonadon egalari bilan hamkorlikda bartaraf etildi.

Yashash sharoitlarini chuqur o'rganib, 3 toifaga ("yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz") ajratgan holda albom tayyorlandi.

2024-yil 3-dekabr kuni Samarqand shahar Yoshlar markazida Yoshlar va tadbirkorlar o'rtasidagi navbatdagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabalari hamda ta'lim-tarbiya maslahatchilari ham qatnashdilar. Tadbirda taniqli va muvaffaqiyatga erishgan 7 nafar tadbirkor, soha mutaxassislari, professionallar ishtirokida bo'lib o'tgan "Biznes marafon"da tadbirkorlikka qiziquvchi yosh faol talabalar ishtirok etdi. Biznes rejalarni tayyorlash hamda tadbirkorlikni boshlash uchun nimalar qilish kerakligi haqida tushunchalar berildi. Shuningdek, ishtirokchilar biznesni rivojlantirishda qo'l keladigan dunyodagi ilg'or tajriba va zamonaviy vositalar bilan tanishtirildi.

Joriy yilning 3-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti xotin-qizlar ishi bo'yicha dekan maslahatchisi dotsent O.Pardayeva va "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası xodimlari, "Lider qizlar" klubi a'zolari bilan birgalikda Samarqand shaharda joylashgan "Ishga marhamat" monomarkaziga borishdi. 26 turdagi kasb-hunar o'rgatish markazida bugungi kunda qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratilganligiga guvoh bo'lishdi. Uchrashuv yakunida filial talaba-qizlari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi va o'quv markaziga a'zo bo'lishib, o'qish uchun qabul qilinishdi. Endi Lider qizlar nafaqat fan, balki kasb egasi ham bo'lish imkoniyatlarini qo'lgan kiritishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2024-yil 17-oktyabrdagi F-53-son Farmoyishi 1-ilovasining 43-bandida oliy ta'lim tashkilotlarida barcha talabalarni qamrab olgan holda Konstitutsiya darslarini o'tkazish vazifasi belgilangan bo'lib, Joriy yilning 4-dekabr dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti ta'lim-tarbiya maslahatchisi Z.M.Mamadxonova Iqtisodiyot fakulteti 424-guruh talabalari bilan birgalikda yangilangan konstitutsiya bo'yicha darslar tashkil etildi. Ushbu suhbatda Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berilganligi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilganligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlanganligi takidlab o'tildi. Rasmlar tanlovi g'oliblarini aniqlab olishda hay'at a'zolari rasmlarda Konstitutsiyada — inson sha'ni va qadr-qimmatı, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini aks ettirilishiga e'tibor berishdi. Tanlovda 1-o'rin BH-124 guruh talabasi Sh. Ablakulova 2-o'rin Qo'shma ta'lim yo'nalishi RIQ-124 guruh talabasi A. Muqimov 3-o'rin BH-124 guruh talabasi F. Xayitova lar qo'lga kiritishdi G'olib va sovrindorlar 2024-yil 6-dekabr kuni soat 11:00 da faollar zalida O'zbekiston ekologik partiyasi bilan hamkorlikda 8-dekabr "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni" munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbirida taqdirlandi.

2024-yil 6-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Bayram tadbiri faollar zalida o'tkazilib, talabalar, o'qituvchilar va taklif etilgan mehmonlarni birlashtirdi. Talabalar tomonidan Konstitutsiyaga bag'ishlangan she'rlar, qo'shiqlar va sahna ko'rinishlar namoyishlari tashkil qilindi. Ushbu chiqishlar barcha ishtirokchilar qalbida chuqur taassurot qoldirdi va bayramga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi. Bayram so'ngida filialda o'tkazilgan Konstitutsiyaning 32 yilligiga bag'ishlangan rasmlar va insholar tanlovlari g'oliblari ham munosib taqdirlandi. Konstitutsiyaning 32 yilligiga bag'ishlangan ushbu tadbir uning mamlakatimiz asosiy qonuni sifatidagi ahamiyatini yana bir bor eslatdi. Bunday bayramlar vatanparvarlikni

tarbiyalashga, jamoa ruhini mustahkamlashga va umumiy qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlashga xizmat qiladi. Filialda bunday tadbirlarni o'tkazish an'analarini davom ettirib, talabalar va xodimlarni mamlakatimiz tarixidagi muhim voqealar atrofida birlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda.

9-dekabr "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan, 2024-yil 7-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida "Ochiq eshiklar kuni" bo'lib o'tdi. Tadbir doirasida, korrupsion holatlarni oldini olish va uni jamiyatimizda ildiz otishiga yo'l qo'ymaslik va uning taraqqiyotga qanchalik xavf soluvchi illat ekanligi haqida ma'ruzalar tinglandi. Tadbirda filial rahbariyati, ota-onalar, huquq-tartibot idoralari vakillari, o'qituvchilar, talaba-yoshlar taklif etildi. 2024-yil 8-dekabr kuni TDIU Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti dekan o'rinbosari Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li hamda fakultet tyutorlari O.Norboyev hamda Z.Mamadxonova filial talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talabalarga "Talabalar turar joyida ichki tartib qoidalari", u yerdagi tartib intizomga va tozalikka rioya etilishi to'g'risida tushuntirish ishlari olib bordilar va talabalarga kerakli maslahatlar berdilar. 10-dekabr O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan milliy g'urur va vatanparvarlikni targ'ib etish maqsadida filial jamoasi davlatimiz madhiyasini kuyladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabr kuni qabul qilingan. Davlatimiz madhiyasi mamlakatning erkinligi, mustaqilligi, va xalqning yagona maqsadi sifatida talqin qilinadi. Davlat madhiyasini kuylash esa butun jamoani birlashtiradigan, milliy birligini mustahkamlovchi muhim bir qadriyatdir. Shuningdek, o'quv xonalaridagi birinchi juftlik darslari "Olamni mahliyo aylagan diyor!" shiori ostida Davlat madhiyasini jo'r bo'lib kuylash bilan boshlandi.

2024-yil 11-noyabr kuni Yoshlar markazida "Yangi O'zbekistonda ma'naviy, diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari" mavzusida ziyolilar forumi o'tkazildi. Tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxoliqov, siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayev mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar, ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganish va keng targ'ib etish, yoshlarni yuksak insoniy, axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar haqida so'z yuritdi. Mazkur tadbir olim, ziyoli, san'at va madaniyat namoyondalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ullar, mahalla faollari hamda ilg'or yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, mamlakatning milliy mafkura yo'nalishidagi islohotlari, jamiyatni, ayniqsa, yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish maqsadida mamlakatimizning barcha hududlarida tashkil etilmoqda, – dedi Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. – Shuningdek, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senatining 18-20 noyabr kunlari o'tkazilgan majlislaridagi nutqlari mazmun-mohiyati, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarini ziyolilar orqali xalqimizga yetkazish va tushuntirishni ko'zlaganmiz. Loyiha doirasida viloyatning tuman va shaharlarida "Yangi O'zbekiston – islohotlar falsafasi" nomli anjuman, faol yigit-qizlar ishtirokida "Zamonaviy yoshlar – taraqqiyot drayveri" mavzusida ilm-fan va innovatsiyalarga bag'ishlangan mahorat darslari, shuningdek, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitob-albomi taqdimoti o'tkazildi.

Joriy yilning 13-dekabr kuni filialda bo'lib o'tgan "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasidagi navbatdagi uchrashuvda shoirlar Nabi Jaloliddin, Nurboy Jabborov va Axtamqul Karimovlar mehmon bo'lishdi. Tadbirda ijodkorlarning hayoti, ijodiy faoliyatidagi lavhalar bilan boshlandi. Shoirlar filial talaba-yoshlariga o'z firklarini va yozgan asarlari bilan o'rtoqlashishdi. Shoirlarning asarlarini o'qigan talabalar, mualliflardan o'zlari qiziqtirgan savollariga javob oldilar. Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida el ardog'idagi shoir va yozuvchilar filial hayoti bilan yaqindan tanishishdi. Mazkur yangilikda "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida TDIU Samarqand filiali faoliyati haqida so'z yuritilgan. Tadbir davomida taniqli shoir va yozuvchilar filial hayoti bilan yaqindan tanishib, o'quv maskanidagi modernizatsiya jarayonlari va talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rgandilar. Mehmonlar, Nurboy Jabborov, Nabi Jaloliddin, Axtamqul Karimov talabalar turar joyi va Axborot Resurs Markaziga tashrif buyurib, yoshlar bilan ishlashda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlardan taassurot qoldirishgan. Ushbu tashrif yoshlarda vatanparvarlik, iste'dod va maqsadlilik ruhini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

2024-yilning 13-dekabr kuni Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filialida an'anaviy "Miss Fakultet" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir Iqtisodiyot fakultetning ijtimoiy va madaniy hayotini yanada boyitish, talabalar orasida do'stona muhit yaratish va ularning ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etildi. Tanlovda fakultetning turli yo'nalishlaridan 6 nafar

talaba ishtirok etdi. Har bir ishtirokchi o'zining tashqi ko'rinishi, sahnadagi ishtiroki, nutqi va ijodiy chiqishlari bilan tanishtirildi. Shuningdek, talabalar o'zlarining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilishdi. Ko'rik tanlovda talaba qizlar 4 ta shart bo'yicha bellashishdi va qizlarning mahorati baholanib, g'oliblar aniqlandi. **"Miss Fakultet" g'oliblari:** I o'rin- Nilufar Mamarasulov-RI(Qo'shma ta'lim)-124; II o'rin- Shamsiyeva Sevinch-IQT-124; III o'rin- Jamoliddinova Niginabonu-BB-123 oldilar.

"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası oyilgi munosabati bilan "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası hamda Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamkorligida joriy yilning 14-dekabr kuni "Zakovat Quiz" o'yini tashkil etildi. Quiz o'yini qiziqarli va esda qolarli vaziyatlarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Turli mavzularda bellashgan jamoalar bahs yakunida quyidagicha natijalarni qayd etishdi. 1-o'rin: Iodarlal 2-o'rin: Kazo kazolardanmiz 3-o'rin: Bormi og'riqG'olib jamoalar "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası tomonidan esdalik sovg'alal bilan taqdirlanishdi.

"Kitob o'qiymiz" loyihasi doirasida interaktiv kitobxonlik bahsi hozirgi paytda TDIU Samarqand filialida Nyu-York universiteti professori Behzod Hoshimov ishtirokida "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" nomli kitobning tahliliga bag'ishlangan interaktiv kitobxonlik bahsi bo'lib o'tmoqda. Tadbir davomida kitobning asosiy g'oyalari muhokama qililib, mamlakatlar rivoji va tanazzuli bilan bog'liq iqtisodiy va ijtimoiy omillar chuqur tahlil qilinmoqda. Ushbu loyiha talaba va o'qituvchilar uchun yangi bilimlar olish, tanqidiy tahlil qilish va bilim almashish uchun ajoyib maydon yaratmoqda.

"Jadidlar jasorati - millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" 2024-yil 18-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, professor O. Murtazayevning 2024-yil 18-noyabrdagi 1124-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-son" buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida filial talaba-yoshlar o'rtasida "Jadidlar jasorati - millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzularida "O'zbek tili va xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchilari tomonidan insholar tanlovi o'tkazildi.

TDIU Samarqand filiali yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan "Mohir qo'llar" to'garagi doirasida to'garak rahbari Zarmina Mamadxonova bilan talaba qizlarimiz o'rtasida to'garakning navbatdagi soni bo'lib o'tdi. To'garak davomida talaba qizlar bayram shukuhi va ko'tarinki ruhda "Archa bezashi" jarayoni bilan bayramga tayyorgarlik ko'rishdi. Kelayotgan bayram bilan TDIU Samarqand filiali yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti barchani muborakbod etadi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-dekabrdagi 457-sonli buyrug'i va filial direktorining 125-U sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida fakultet dekanati, kafedra mudirlari va tyutorlari birgalikda har bir guruhlar bilan uchrashgan holda, talabalarga qishki ta'til kunlari, yakuniy nazorat davri haqida ma'lumotlar yetkazildi. Talabalarga qishki ta'til vaqtida o'z manzillariga yetib olishda xavfsizlik qoidalari eslatib o'tilib, qishki ta'tilni zoze ketkazmasdan filial veb-saytiga yuklangan fanlar bo'yicha imtihonlar savollarini olib tayyorlanish, turli tashkil etiladigan onlayn olimpiadalarda faol qatnashish kerakligi yetkazildi. Dekanat tomonidan o'qish faoliyati, jamoatchilik va sport tadbirlarida hamda filial hayotida faol bo'lgan bir guruh talabalarining ota-onalariga tashakkurnomalar berildi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Xotin qizlar maslahat kengashi hamda yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda "Qizlarjon" klubining "Biser yasash" bo'yicha to'garagi tashkil etildi. To'garakda ORI-122 guruh talabasi Maxmudova Durdona o'z tajribalarini almashdi. Biser va munchoqlardan sumka, tillaqosh va taqinchoqlar yasash usullaridan tushuncha berildi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Xotin qizlar maslahat kengashi hamda yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda "Qizlarjon" klubining "Biser yasash" bo'yicha to'garagi tashkil etildi. To'garakda ORI-122 guruh talabasi Maxmudova Durdona o'z tajribalarini almashdi. Biser va munchoqlardan sumka, tillaqosh va taqinchoqlar yasash usullaridan tushuncha berildi. "Milliy musiqa cholg'ulari" ansambli tashkil etilgani haqidagi mazkur yangilik juda quvonarli! Ushbu ansambl milliy merosimizni targ'ib qilish va yosh avlod orasida musiqa madaniyatini rivojlantirishda muhim qadamdir.

2024-yil 21-dekabr kuni o'tkazilgan kastingda ansambl a'zolari sifatida milliy cholg'ularda ijro etish qobiliyatiga ega, tajribali talabalar tanlab olindi. Bu jarayon, albatta, yosh musiqachilar uchun o'z iste'dodini namoyish etish imkonini yaratdi. "Milliy musiqa cholg'ulari" ansambli kelgusida turli

madaniy tadbirlarda ishtirok etib, o'z san'ati bilan xalqni xushnud etadi va milliy musiqamizni keng targ'ib qiladi, deb umid qilamiz. Bu tashabbus o'quvchilar va talabalarning ijodiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Samarqand viloyati yoshlar markazi binosida Yoshlar yetakchilari forumi va yil sarhisobi bo'lib o'tdi. Unda Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari H.To'xtayev hamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Samarqand viloyati kengashi raisi D.Azizova ishtirok etishdi. Yil sarhisobida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda qo'shgan hissasi va "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da namunali faoliyat olib borganligi, shuningdek, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich tashkilotlaridagi "Yoshlar yetakchilari forumi"da faol ishtiroki uchun filial yoshlar yetakchisi Feruzjon Toshpo'latov markaziy Kengash raisining tashakkurnomasi hamda statuetka bilan taqdirlandi. 2024-yil davomida Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti koordinatori sifatida amalga oshirgan ishlari va yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda munosib hissasi uchun filialimiz yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti koordinatorlari Diyorbek Rahimjonov va Dilbar Amonova tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Kreativ yondashuv, noodatiy rakurs, ertaknamo ko'rinish, neoklassik uslub va talabalarda olam-olam quvonch — TDIU Sfdada o'zgacha yangi yil shukuhi! Yangi yil arafasida universitetda bayramona kayfiyatni yanada oshirish va talabalarga unutilmas lahzalar ulashish maqsadida "Yangi yil" tadbiri tashkil etildi. Yangi yil tadbiri davomida quvnoq musiqalar, bayram shou-dasturlari, Qorbobo va Qorqizning sovg'alari talabalarga haqiqiy bayram kayfiyatini ulashdi. Talabalar o'z chiqishlari, sahna ko'rinishlari va ijodiy ishtiroklari bilan Yangi yil mo'jizasini his qilishdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrda 3/14-4/2-2437-sonli xati va TDIU Samarqand filiali direktorining 2024-yil 7-dekabrda №125U sonli buyrug'iga muvofiq "Professor-o'qituvchilar uchun o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini to'liq joriy etish tadbirlari" hamda "Oliy ta'limda inkluziv ta'limni tashkil etish asoslari" bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida joriy yilning 25-dekabr kuni O'quv - uslubiy bo'lim boshlig'i dotsent Bobomurodov Ziyodulla Sayfiddinovich hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i G'aniyev Ibragim Mamadiyevich tomonidan qisqa muddatli malaka oshirish mashg'ulotlari o'tkazildi.

Oy davomida ta'lim-tarbiya maslahatchilari va guruh rahbarlariga **"Konstitutsiya xayotimiz poydevori Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun mohiyati", "Davlat madhiyasi-millatning faxr va g'ururi", "Globallashuv va mafkuraviy immunitet"** "mavzularda axborot va murabbiylik darslari o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Ijarada va yaqin qarindoshinikida yashaydigan talabalar bilan hafta davomida yashash sharoitlari o'rganilib, xonalarni tozaligi, umumiy ovqatlanish oshxonalaridan foydalanish, texnika xavfsizligi va "Is gazidan zaharlanish"ni oldini olish isitish uskunalarida to'g'ri foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib hamda kerakli maslahatlar berildi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

T.A.Yuldashev

Dekabr oyi davomida o‘tkazilgan tadbirlardan lavhalar

